

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

CHORIYEVA IRODA QURBONBOYEVNA

**TIBBIY LEKSIKA ASOSIDA SHAKLLANGAN PAREMALARNING
CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI
MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Choriyeva Iroda Qurbonboyevna

Tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida) 3

Chorieva Iroda Kurbonboevna

Contrastive study of paremias formed on the basis of medical lexicon (on the example of the English and Uzbek languages)..... 23

Чориева Ирода Курбонбоевна

Сопоставительное исследование паремий, образованных на основе медицинской лексики (на примере английского и узбекского языков) 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 47

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

CHORIYEVA IRODA QURBONBOYEVNA

**TIBBIY LEKSIKA ASOSIDA SHAKLLANGAN PAREMALARNING
CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI
MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.4.PhD/Fil4238 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tues.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Narmuratov Zayniddin Radjabovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: Mamatalieva Navbahor Xujamberdievna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Jo'rayeva Bibish Muhsinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Fil.13.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 2 » may soat 11.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 20 » 04 kuni tarqatildi.

(2026-yil « 20 » 04 dagi 4 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



O.P.Uralova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

A.A.Eshmuminov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
professor

N.X.Mamataliyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida olam manzarasining tilda aks etish darajasini o‘rganish xalqning yashash hududi va sharoiti, turmush tarzi, mental xususiyatlari, milliy xarakter kabi tushunchalarni tahlil qilish, xalq madaniy taraqqiyot darajasining voqelanishi, etnomadaniy etika tamoyillari, og‘zaki manbalardagi madaniyatni ifodalovchi belgilarni ajratish tilshunoslikning muhim muammolaridan bo‘lib qolmoqda. Dunyo xalqlarining o‘zaro bir-birini tushunishi, boshqa xalqlarning madaniyati va tilini bilishi bugungi davr talabi. Bu o‘z navbatida paremiologik birliklar tilimiz qonuniyatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish, qardosh bo‘lmagan tillar tizimida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning klassifikatsiyasini yaratib, xususiyatlarini qiyosiy aspektda aniqlash, tilshunoslikning turli aspektlarda o‘rganishda lingvomadaniyat, etnolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalolingvistika va boshqa fanlarga oid ko‘plab jihatlarni birlashtirishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligining muhim bo‘g‘inlaridan sanalgan paremiologiyaning tadqiqot obyekti, shubhasiz, maqollarga qaratilgan va ko‘plab tilshunoslik maktablarining asosiy muammolariga aylanib bo‘lgan. Til birligi sifatida maqollarning o‘rganilishida ularning inson tafakkuri mahsuli sifatida vujudga kelishi, tilda qo‘llanilganda nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlashi kabi omillar bilan birgalikda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tadqiqotlar natijasida ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalar orqali olamning milliy, lisoniy manzarasidagi o‘rnini belgilash, paremalarning mavzuviy guruhlarini aniqlash, tilning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish, voqelanish jarayonlarini qiyosiy aspektda chog‘ishtirish, ularning shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillarni aniqlash va ilmiy asoslash imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda ham maqollarning lingvistik maqomiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning semantik, gender, stilistik, struktur kabi xususiyatlari izchil o‘rganilishi o‘zbek paremiologiyasining rivojiga hissa qo‘shgan. Biroq, o‘zbek paremiologiyasida “xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat”¹larimizni noqardosh tillar bilan qiyosiy-chog‘ishtirilib o‘rganishda konseptual tadqiqotlarga ehtiyoj sezildi. Xususan, qiyosiy tilshunoslikda paremiologiyani mustaqil soha sifatida talqin etish, tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning iste’molda qo‘llanilish qiymatini, amaliy ahamiyatini, yashovchanligini sinovdan o‘tkazish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi. Shu bois, ingliz va o‘zbek tillarida tibbiyot konseptiga doir maqollarni tilshunoslik mezonlari asosida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4664611>.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”qi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida V.V.Maslova, S.Y.Nikitina, A.F.Vejbitskaya, V.N.Teliya, Y.V.Babayeva, L.Y.Vilms, V.V.Vorobev, N.F.Alefirenko, V.M.Shaklein, Z.K.Sabitova, I.A.Murzinova, O.Bicher², o‘zbek tilshunosligida N.M.Maxmudov, Sh.S.Safarov, D.S.Xudoyberganova, Sh.Usmonova, Sh.T.Maxmaraimova, M.Saidova, U.Qo‘ziyev, D.A.Tosheva³, ingliz tilshunosligida M.Birem, B.Gribkova, H.Starki,

² Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: Академия, 1987. – 284 с.; Никитина С.Е. Устная народная культура и языковое сознание. – М.: Наука, 1993. – 189 с.; Вежбицкая А.Ф. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В. Падучевой. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.; Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков): Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 207 с.; Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия “любовь” (на материале немецкого и русского языков): Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 212 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология. М.: Издательство Российского университета дружбы народов, 2006. – 112 с.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. – 240 б.; Шаклеин В.М. Лингвокультурология: Традиции и инновации [Электронный ресурс]: Монография. – М.: Флинта, 2012. – 301с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта, 2013. – 524 с.; Мурзинова И.А. Эмблематичность образных характеристик лингвокультурного типажа «британская королева» в языковом сознании носителей британской лингвокультуры // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2013. – №10. – С.138.; Бичер О. Русские пословицы и поговорки с компонентом-зоонимом (на фоне турецкого языка): Дисс. канд. филол. наук. – Смоленск, 2015. – 145 с.

³ Махмудов Н.М. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. № 5. – Б.3-16; Сафаров С.Ш. Семантика. – Тошкент: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий

A.P.Kovi⁴ kabi olimlarning ilmiy ishlarida lingvokulturologiyaning shakllanish bosqichlari, lisoniy-madaniy tadqiqot usuli, konsept tushunchasi, dunyoning lisoniy manzarasi kabi lingvokulturologiyaning turli masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlar olib borilgan.

Maqolni paremiologik birlik sifatida o‘rganishda ingliz tilshunosligida A.Taylor, A.Dantes, V.Mayder, J.Rey⁵ kabi olimlar tadqiqot olib borishgan bo‘lishsa, o‘zbek tilshunosligida G‘.Salomov, M.Fozilov, M.To‘ychiyev, M.Hakimov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Sodiqova, M.M.Karomatova, H.S.Karomatov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, B.M.Jo‘rayeva, A.Musoqulov, P.U.Bakirov, G.I.Ergasheva, B.P.Nazarov, D.A.Tosheva, D.S.Turdaliyeva, Sh.Tojiboyev, M.A.Temirova, O.P.Uralova, Z.Narmuratov⁶ va

нашриёти, 2013. – 341 б.; Махмудов Н.М. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. № 3. – Б. 3-12.; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фанлари д-ри. дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.; Худойберганова Д.С. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 44.; Усмонова Ш. Лингвокультурология фанидан марузалар курси. – Тошкент: Университет, 2014. – 111 б.; Усмонова Ш. Таржиманинг лингвомаданий аспекти. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2015. – 192 б.; Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология [матн] ўқув қўлланмаси. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 164 б.; Саидова М., Қўзиёв У. Лингвокультурология. Услубий қўлланма. – Наманган, Камалак, 2017. – 127 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри. дисс. – Тошкент, 2017. – 151 б.

⁴ Michael B., Bella G., Hugh S., Hugh S. Developing the intercultural dimension in language teaching. A practical introduction for teachers. – Strasbourg: Council of Europe, 2002. – 42 p.; Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – USA, Oxford University Press, 2012. – 272 p.

⁵ Taylor A. Selected Writings on proverbs. – Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1975. – 203 p.; Dundes A. On the structure of the Proverb, Mieder, W. & Dundes A. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. – Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press, 1994. – 352 p.; Meider W. Proverbs: A Handbook. – London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.; Ray J. A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. – London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.

⁶ Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: Фанлар академияси, 1961. – 159 б.; Фозилов М. Ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1967. – 191 б.; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши. Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарқанд, 1971. – 87 б.; Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – 176 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Том 1. – Тошкент: Фан, 1987. – 368 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Том 2. – Тошкент: Фан, 1988. – 372 б.; Содиқова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 76 б.; Кароматова М.М., Кароматов Ҳ.С. Proverbs-мақоллар-пословицы. – Тошкент: Меҳнат, 2000. – 400 б.; Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.; Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фанлари номзоди дисс. – Бухоро, 2002. – 136 б.; Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 253 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разнотипных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Доктор филологических наук дисс. – Ташкент, 2007. – 334 с.; Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.; Назаров Б.П. Бакалавр тайёрлашнинг қуйи босқичида немис тилини коммуникатив методика асосида ўқитишда мақоллардан фойдаланиш. Педагогика фанлари номзоди дисс. – Самарқанд, 2012.–186 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2017. – 151 б.; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами). – Тошкент: Наврўз, 2018. – 76 б.; Темирова М.А. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021.– 144 б.; Нармуратов З.Р. Таълим, илм ҳикматлари. – Термиз: Термиз давлат университети, НММ нашриёти, – 2022. – 89 б.

boshqalarning ishlarida o‘zbek xalq maqollarining ma’naviy va lingvistik tabiati, uslubiy xususiyatlari, hamda ularni boshqa tillardagi turdosh maqollar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida o‘rganish orqali bu yo‘nalishda yangi bosqich boshlab berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutini mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantirish istiqbolli rejasida belgilangan “Mintaqada ta’lim va ilmning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ularning davlatchilik tarixidagi ahamiyatini tahlil va targ‘ib qilish” mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning o‘xshash va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paremiologik birliklarga oid ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish, ingliz va o‘zbek xalq maqollarining har ikkala xalqning o‘ziga xos moddiy va ma’naviy madaniyatlari negizida shakllanganligini asoslash;

ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning til va nutqdagi, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turli aspektlardagi davriy qatlamini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarni mavzuviy guruhlariga ajratib ekvivalentlik darajasiga ko‘ra taqqoslash;

ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning olamning milliy, lisoniy manzarasidagi o‘rnini belgilash, tilning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy leksika asosida shakllangan paremalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning chog‘ishtirma tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda leksik-semantik, chog‘ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvomadaniy, stilistik, komponent tahlil, shuningdek, statistik, analitik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek xalq maqollarining mavzuviy guruhlar va miqdori har ikkala xalqning bir-biriga o‘xshagan mentaliteti, tarixi, har xil moddiy va ma’naviy madaniyatlarga egaligi, an’anaviy xo‘jaligi, turli dinlarga e’tiqod qilishi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg‘ulari, urf-odatlarini negizida shakllanganligi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning til va nutqdagi, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra leksik-semantik, kognitiv-kategorial, pragmatik-kontseptual xususiyatlari, diaxron va sinxron aspektlardagi davriy qatlami aniqlangan;

ingliz tilidagi “*injury*” va “*wound*” hamda o‘zbek tilidagi “*yara*” va “*jarohat*”

leksemalari har ikkala tildagi maqollarda jarohatlar, shikastlanishlar orqali inson holati, tuygʻulari va tajribalari, boshdan kechirgan mashaqqatlari va ulardan olgan saboqlari, xotiralari va madaniy merosning bir qismi sifatida jamiyat tafakkurida namoyon boʻlishi dalillangan;

ingliz maqollarida “*ill*” va “*sick*” leksemalari mavjud maqollar koʻp sonni tashkil etsa, “*disease*”, “*illness*”, “*sickness*”, “*malady*” asosida shakllangan paremlar nisbatan kam, oʻzbek maqollarida ham “*dard*” leksemasi asosidagi maqollar son jihatdan ancha koʻp boʻlsa, “*shifo*”, “*darmon*”, “*malham*” leksik-semantik guruhidagi naqlar nisbatan kam ifodalanashi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va oʻzbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremlar semantikasi va lingvomadaniyat bilan bogʻliq boʻlgan tomonlari hamda oʻziga xos xususiyatlarining chogʻishtirma tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi va “Tilshunoslik”, “Leksikologiya”, “Uslubiyat”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Qiyosiy tipologiya”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Xorijiy tillarni oʻqitishda madaniyatlarni muloqotni shakllantirish” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va oʻquv qoʻllanmalarining mukammallashuviga yordam berishi asoslangan;

ingliz va oʻzbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan maqollarning semantikasi va lingvomadaniyatini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodikaning qardosh va qardosh boʻlmagan tillarga xos boshqa tipdagi paremlarini tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

tibbiy leksika asosida shakllangan paremlarning ingliz va oʻzbek tillaridagi qiyosiy-chogʻishtirma tahlili amalga oshirilib, maqol, matal va aforizm kabi birliklarning oʻziga xos xususiyatlari madaniyatlararo muloqot jarayonida foydalanilishi va oʻrganilishida ishonchli manba boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qoʻyilganligi, nazariy maʼlumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv hamda qoʻllanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar leksik-semantik, chogʻishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvomadaniy, stilistik, komponent tahlil, shuningdek, statistik, analitik tahlil metodlari bilan asoslanganligi, shu bilan birgalikda, xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tilshunoslikning yangi yoʻnalishlari, xususan, lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini oʻrganishda, milliy matnlarga xos xususiyatlarni tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritishda, lingvomadaniy tadqiqot usullaridan foydalanishda, tadqiq manbalarini aniqlashda, tibbiy leksika asosida shakllangan paremlarning lingvokulturologik qiymatini belgilashda koʻrinadi. Dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohazalar tibbiyot konseptli ingliz, oʻzbek paremlarining lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Oliy taʼlim tizimida “Lingvokulturologiya”, “Leksikologiya”, “Qiyosiy tipologiya”,

“Tarjimashunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlarni muloqotni shakllantirish” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda, magistratura bosqichida “Lingvistik tadqiqot metodlari”, “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari” kabi yo‘nalishlarda maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning chog‘ishtirma tadqiqi tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek xalq maqollarining mavzuviy guruhlar va miqdori har ikkala xalqning bir-biriga o‘xshagan mentaliteti, tarixi, har xil moddiy va ma‘naviy madaniyatlarga egaligi, an‘anaviy xo‘jaligi, turli dinlarga e‘tiqod qilishi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg‘ulari, urf-odatlarini negizida shakllanganligiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023 yillarda bajarilgan PZ-202004165 “Umumiy o‘rta ta‘limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-fevraldagi №04/01-427-son ma‘lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning semantikasi va lingvomadaniy tahlili asosida zamonaviy qiyosiy paremiologiyaga doir muammolarning yechimini topishning yangi yo‘nalishlarini ochib berishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning til va nutqdagi, shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra leksik-semantik, kognitiv-kategorial, pragmatik-kontseptual xususiyatlari, diaxron va sinxron aspektlardagi davriy qatlamiga oid nazariy xulosalardan Toshkent texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021–2023-yillarda bajarilgan “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua tashkil etish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2025-yil 24-yanvardagi №38/01-01son ma‘lumotnomasi). Natijada to‘plangan paremiologik birliklar ingliz va o‘zbek xalqlarining til boyligini, urf-odatini, mentalitetini, dunyo qarashlarini va tarixini o‘rganishda, hamda til o‘rganuvchilarda kerakli kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilgan;

ingliz tilidagi “*injury*” va “*wound*” hamda o‘zbek tilidagi “*yara*” va “*jarohat*” leksemalari har ikkala tildagi maqollarda jarohatlar, shikastlanishlar orqali inson holati, tuyg‘ulari va tajribalari, boshdan kechirgan mashaqqatlari va ulardan olgan saboqlari, xotiralari va madaniy merosning bir qismi sifatida jamiyat tafakkurida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan Termiz davlat universitetida 2021-2024-yillarda bajarilgan 617309-EPP-1-2020-1-EPPKA2-CBHE-JP “Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate’s employability in Central Asia – TRIGGER” mavzusidagi xalqaro loyihani bajarishda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 4-yanvardagi №06/12-24-son ma‘lumotnomasi). Natijada tibbiy leksika asosida shakllangan paremalarning transformatsiyasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar nafaqat oliy

ta'lim muassasalarida o'tiladigan fanlar o'qitilishida, balki keng omma uchun mo'ljallangan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar yaratishda ham muhim manba bo'lib xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 1 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanlarida ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika miqyosidagi va 6 ta xalqaro bazalar ro'yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 2 ilovadan iborat bo'lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning "**Paremiologik birliklarni o'rganishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida jahon, ingliz va o'zbek tilshunoslarining paremiologik birliklar ustida olib borgan ilmiy izlanishlari, xususan, ularning tarixi, paremiologik birliklarning yondosh hodisalarga munosabatiga nisbatan konseptual xulosa ishlab chiqilgan hamda ular yangi nazariy fikrlar bilan boyitilgan.

Xalq maqollarini to'plash, ularning tabiatdagi turli davrlarga xos qatlamlarini izchil sinfiylik nuqtayi nazaridan o'rganish lozim. X-XI asrlarda Angliyada diniy qarashlar rivojlanishi natijasida didaktik asarlarga bo'lgan ehtiyoj oshib borib, bir qator pand-nasihatchilik mazmunidagi asarlar vujudga keldi. Shunday asarlardan biri – eng qadimgi ingliz maqol-matallarining yozma to'plami hisoblangan "Proverbs of Alfred" dir⁷. Mazkur asar 1150–1180-yillarda yaratilgan bo'lib, o'zida diniy hamda odob-axloqqa doir ko'rsatmalarni mujassamlashtirgan.

Turkologiyada paremalarni tadqiq etish o'q ildizi bobimiz M.Koshg'ariy⁸ asarlariga borib taqaladi. Bundan tashqari Yusuf Xos Hojib, Rabg'uziy, Yassaviy, Atoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oz Bahodirxon, Turdi, Gulxaniy, Munis, So'fi Olloyor, Nodira, Muqimiy va boshqa alloma shoirlarimizning asarlarida ko'plab maqollardan o'rinli foydalanganligining guvohi bo'lamiz.

⁷Dundes A. On the structure of the Proverb, in Mieder, W. & A. Dundes. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. – Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press, 1994. – 45-52 p.

⁸ Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1960. – 168-169 б.

O'tgan asrning 70-80-yillarida hikmatli so'zlar, turg'un birikmalar, xalq maqol va matallarini to'plab tasnif qiluvchi va o'rganuvchi yo'nalish sifatida jahon tilshunosligi faniga paremiologiya kirib keldi. Sohaning nomi yunoncha "paroimia" (hikmatli so'z) va logos (fan) so'zlaridan olingan. Paremiologiyaning o'rganish obyektini olimlar bir qancha turlarga ajratadilar. Paremiologiya sohasini keng ma'noda tushunib tadqiq etuvchi olimlar paremlar tarkibiga *hikmatli so'z, ibora, maqol, matal, rivoyat, afsona, tilaklar, duolar, qarg'ish so'zlar, ertak, aforizm, bashoratlar* kabi 30 ga yaqin birliklarini kiritadi. Tor ma'noda esa maqol, matal, aforizm kabi turlarni tasnif qilish va o'rganish ma'qulroq. Biz esa tadqiqotimizda maqollarni paremiologik birlik sifatida tadqiq etdik.

Zamonaviy tilshunoslikda maqollar ustida V.Dal, O.A.Dmitriyeva, Z.K.Tarlanov, Chjen Inkuy, Z.A.Biktagirova, I.Y.Yudina, Y.Y.Niktovenko⁹, A.Taylor, A.Dantes, V.Mayder, J.Rey¹⁰, G'.Salomov, M.Fozilov, M.To'ychiyev, M.Hakimov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, M.Sodiqova, M.M.Karomatova, H.S.Karomatov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, B.Jo'rayeva, A.Musoqulov, P.U.Bakirov, G.Ergasheva, B.P.Nazarov, D.A.Tosheva, D.Turdaliyeva, Sh.Tojiboyev, M.Temirova, O.P.Uralova, N.Madalov¹¹ va boshqalarning ishlarida

⁹Даль В.И. Пословицы русского народа. – Москва: Художественная литература, 1957. – 430 с.; Дмитриева О.А. Культурно-языковые характеристики пословиц и афоризмов на материале французского и русского языков: Дисс.... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 189 с.; Tarlanov Z.K. Русские пословицы: синтаксис и поэтика. – Петрозаводск: Изд-во Петрозаводск. ун-та, 1999. – 448 с.; Чжэн Инкуй Русские зоонимы в комплексном лингвистическом рассмотрении: дисс...канд. филол. наук. – Москва, 2001. – 198 с.; Биктагирова З.А. Концепт "Семья" в паремииологии английского, турецкого и татарского языков. Дисс.... канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 228 с.; Юдина И.Ю. Метафора в английской пословице. Дисс.... канд. филол. наук. – Москва, 2012. – 148 с.; Никтовенко Е.Ю. Семантика конфликт содержащих паремий и афоризмов в лингвокогнитивном и лингвокультурном аспектах (на материале русского и английского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2015. – 185 с.

¹⁰ Taylor A. Selected Writings on proverbs. – Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1975. – 203 p.; Dundes A. On the structure of the Proverb, in Mieder, W. & A. Dundes. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. – Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press, 1994. – 352 p.; Meider W. Proverbs: A Handbook. – London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.; Ray J. A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. – London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.

¹¹ Саломов Ф. Рус тилидан ўзбекчага мақол, мatal ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: Фанлар академияси 1961.– 159 б.; Фозилов М. Ҳикматли сўзлар, Афоризмлар ва мақоллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1967. – 191 б.; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши. Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДШИ асарлари. – Самарқанд. 1971. – 87 б.; Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – 176 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Том 1. – Тошкент, Фан, 1987. – 368 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Том 2. – Тошкент: Фан, 1988. – 372 б.; Содиқова М. Қискача ўзбекча-русча мақол-мatalлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 76 б.; Кароматова М., Кароматов Ҳ.С. Proverbs-мақоллар-пословицы. – Тошкент: Меҳнат, 2000. – 400 б.; Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фанлари номзоди дисс. – Бухоро, 2002. – 136 б.; Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 253 б.; Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Доктор филологических наук дисс. – Ташкент, 2007. – 334 с.; Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.; Назаров Б.П. Бакалавр тайёрлашнинг қуйи босқичида немис тилини коммуникатив методика асосида ўқитишда мақоллардан фойдаланиш. Педагогика фанлари номзоди дисс. – Самарқанд, 2012. – 186 б.; Тошева Д.А Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... днсс. – Тошкент, 2017. – 151 б.; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами). – Тошкент: Наврўз, 2018. – 76 б.; Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Уралова О. П. Инглиз ва ўзбек тилларида «оила» бош

ingliz va o‘zbek xalq maqollarining ma’noviy va lingvistik tabiati, uslubiy xususiyatlari hamda ularni boshqa tillardagi turdosh maqollar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida o‘rganish orqali bu yo‘nalishda yangi bosqich boshlab berilgan.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Maqol, matal, aforizm tushunchalarining talqini va ular o‘rtasidagi farqlar”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda maqol, aforizm va matal birliklarini farqli jihatlariga diqqat qaratdik. Ushbu paragrafda maqol, matal va aforizmlar tipidagi paremlar ta’riflariga murojaat etib, bu parema turini chegaralashga harakat qilamiz. Ingliz tilining “Macmillan lug‘ati”da *proverb is a short well-known statement that gives practical advice about life = adage, saying*¹² [hayot haqida yaxshi maslahat beradigan qisqacha bayonot] deb izoh berilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *maqol hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihati mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, tugal ma’noli hikmatli ibora, gap*¹³ deb ta’kidlangan.

Ingliz tilida *maqol* “proverb”, *matal* “saying”lar bir-biriga yaqin terminlar hisoblanadi. “Macmillan Dictionary and Thesaurus: Free English Dictionary” lug‘atda berilgan ta’rifga ko‘ra: *Saying – a well-known statement about what often happens in life*¹⁴ [matal – hayotda ko‘pincha yuz beradigan hammaga yaxshi ma’lum bo‘lgan fikr). Tilshunos B.R.Mengliyev “*matal deganda to‘g‘ri ma’no ifodalaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo‘lmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi*” deb ta’kidlaydi. Masalan, *qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi yerga yetganda* kabi. Matalga boshqa bir gap qo‘shilishi bilan fikr to‘liq ifodalanadi. Masalan, *Tuyaning dumi yerga yetganda u universitetga hujjat topshiradi* kabi¹⁵.

Aforizmlarga ta’rif berish, ularning tabiati va hayotiy vazifalarini belgilash eramizdan oldingi IV asrda yashagan faylasuf Gippokrat davridan boshlangan. U yunoncha “*aforizm*” terminiga chegaralash ma’nosidan olingan leksema deb qaraydi¹⁶.

Ingliz tilining nufuzli “Macmillan English dictionary for advanced learners lug‘ati”da *aphorism is a short statement that says something wise and true*¹⁷ [donolik va haqiqat haqida bayonot beradigan qisqa gap] deb ta’riflangan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa *aforizm* [r<grek] “chuqur ma’noli, qisqa, ixcham, *ibora*, hikmatli so‘z”¹⁸ deya ta’riflangan. Quyidagi jadvalda berilgan maqol, matal va aforizmlar orqali ushbu paremalardagi farqni kuzatishimiz mumkin. Unda tibbiy leksika asosida shakllangan bir qator maqol, matal va aforizmlar tahlil qilingan

лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.; Madalov N.E. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq maqollarda sinonimik va antonimik munosabatlarning ifodalanishi (ingliz va o‘zbek tillari misolida) Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Termiz, 2023. – 127 b.

¹² Shovel. M. Macmillan English dictionary for advanced learners second edition. – London: Macmillan Publisher, 2007. – 1194 p.

¹³ Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006. – 569 б.

¹⁴ Shovel. M. Macmillan English dictionary for advanced learners second edition. – London: Macmillan Publisher, 2007. – 1323 p.

¹⁵ Менглиев Б.Р. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – 191-192 б.

¹⁶ Пермяков Г.Л. Паремииологический сборник. – М.: Наука, 1984. – 107 с.

¹⁷ Shovel. M. Macmillan English dictionary for advanced learners second edition. – London: Macmillan Publisher, 2007. – 58 p.

¹⁸ Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006. – 135 б.

Maqol, matal va aforizmlarning farqi tahlillar asosida

Proverb	Maqol	Saying	Matal	Aphorism	Hikmatli so‘zlar
<i>Everyone is his own doctor</i>	<i>Bir anor ming bemorga davo</i>	<i>Any doctor in a hospital</i>	<i>Qizil qor yoqqanda</i>	<i>A good doctor treats the disease; a great doctor treats the patient who has the disease. – William Osler</i>	<i>Vahima qilish yarim kasallikdir. Xotirjamlik yarim sog‘likdir. Sabr esa shifoning boshlanishidir. Abu Ali Ibn Sino</i>

Yuqorida keltirilgan ta’rif va tahlillardan ko‘rinib turibdiki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o‘rtasida katta farq borligini, ularni bir biridan ajratish kerakligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, maqollarda tugal hukm va aniq xulosa mavjud bo‘lsa, matallar esa maqollar kabi tugal hukmni ifodalaymaydi. Bu esa maqollarning xalq paremik ijodida o‘ziga xos va alohida tadqiq qilinishi lozim ekanligini ifoda etadi. Maqol va aforizmga doir keltirilgan misollardan kelib chiqqan holda, ikki birlikka quyidagicha ta’rif berish mumkin: *Maqollar* – xalq og‘zaki ijodining elementi bo‘lsa, *aforizm* adabiy tilga taalluqli bo‘lib, asosan yozma ko‘rinishda ifoda etiladi, maqolning muallifi noaniq bo‘lsa, aforizمنىning muallifi aniq bo‘ladi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “Maqollarni tadqiq qilishning lingvomadaniy asoslari va ularda tarjima masalasi” deb nomlangan. Ishimizda ingliz va o‘zbek tilining leksik fondida mavjud bo‘lgan maqollarni chog‘ishtirish orqali ikki xalqning dunyoqarashi, kundalik turmush tarzi kabi an’analari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini ochib berishga harakat qilganmiz.

Paremiologik birliklarning yana bir muhim jihati ularni boshqa tillarga o‘girish masalasi hisoblanadi. Maqollarni tarjima qilishda ekvivalentlik hodisasidan foydalandik. Tillararo ekvivalentlik xususida so‘z yuritilganda, chog‘ishtirilayotgan tillar birliklarining markaziy va perefirik semantik komponentlarining muvofiqligi nazarda tutiladi²⁰.

Ingliz va o‘zbek xalq maqollarining chog‘ishtirma tahliliga e’tiborimizni qaratib, ulardan namunalar keltirdik. To‘plangan misollar turli to‘plam va lug‘atlardan²¹ terilgan.

¹⁹ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Том 1. – Тошкент: Фан, 1987. – 368 б.; Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 253 б.; Раимов А., Раимова Н. Ҳикматлар шодаси. (қайта нашр) – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 400 б.; Ray J. A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. – London: Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.; Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги проverbsиал фразеологизмларнинг семантик – стилистик ва миллий – маданий хусусиятлари: Филол. фан. докт. дис. – Тошкент, 2016. – 248.; [https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/d/d2/Aphorism_\(PSF\).png](https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/d/d2/Aphorism_(PSF).png).

²⁰ Зокирова С. Контрастив лингвистикада конгруэнтлик ва эквивалентлик тушунчалари хусусида// Илмий-методик электрон журнал № 6 (14) / 2016.

²¹ ВасильеваЛ. Краткость – душа остроумия. Английские пословицы, поговорки, крылатые выражения. – М.: ЗАО Центрполиграф, 2006. – 350 с.; Содиқова М. Қисқача ўзбекча - русча мақол - маталлар луғати. – Тошкент, 1993. – 76 б.; Нармуратов З. Қисқача икки тили илм-маърифат паремиологик луғат. – Тошкент: ADAST POLIGRAF, 2020. – 84 б.; Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 253 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Том 1. – Тошкент: Фан, 1987. – 368 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Том 2. – Тошкент: Фан, 1988. – 372 б.; Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Мусоқулов А. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, 1989. – 512б.; Жўраева Б. М. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. – Тошкент, 2006. – 96 б.; Ray J. A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books, 2013. – P. 19.; Mieder W. A Dictionary of American Proverbs first published. – Oxford: Oxford University Press, 1992. –P.710.; Apperson G.L. English proverbs and

Ingliz va o‘zbek tilidagi tibbiy leksika asosida shakllangan maqollarning
ekvivalentlik tahlili

Inglizcha	Tarjima	Izoh	Ekvivalent	Izoh
Call not a <i>surgeon</i> before you are wounded	Yaralanmasdan avval jarrohni chaqirma	-	Podadan oldin chang chiqarma	+
All things are possible with God	Xudo har narsaga qodir	-	<i>Bemor</i> tuzalgisi kelsa, tabib o‘z oyog‘i bilan kelar	+

Eslatma: (+) belgisi hodisaning ijobiy ekanligiga ishora qiladi.

Eslatma: (-) belgisi hodisaning salbiy ekanligiga ishora qiladi.

Yuqoridagi jadvalda berilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, maqollarni so‘zma-so‘z tarjima qilish har doim ham o‘zini oqlamaydi, aksincha, maqollarga mos ekvivalent berish orqali ko‘zlangan ma‘no va mazmunga erishish mumkin.

Dissertatsiyaning “**Kasallik nomlari va belgilari asosida shakllangan maqollarning o‘ziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida “*sick*”, “*disease*”, “*sickness*”, “*malady*”, “*ill*”, “*dard*”, *bemor*”, “*kasal*”, “*xasta*”; “*injury*”, “*wound*”, *yara*”, “*jarohat*” kabi leksemalari asosida shakllangan paremlar chog‘ishtirma tahlil etilib, ularning lingvomadaniy jihatdan farqli va o‘xshash tomonlari misollar asosida ochib berildi. Ingliz xalqi maqollari orasida “*sick*” leksemali paremlar ko‘plab topiladi. Masalan, “*The devil was sick, the devil a saint would be; the devil was well, the devil a saint was he!*”²² (*Shayton kasal bo‘lganda, avliyo bo‘laman deydi; Shayton tuzalganda, hech qachon avliyo bo‘lmagan bo‘ladi*) maqoli orqali odamlar ko‘pincha kasal bo‘lganda yoki qiyinchilikka duch kelganda *dinga* yuzlanishlari yoki o‘zgarishga va‘da berishlari, lekin muammo hal bo‘lishi bilanoq yana avvalgi odatlariga qaytishlarini tushunish mumkin. O‘zbek xalqi e‘tiqodlariga ko‘ra ham va‘da ishonch va majburiyat belgisi bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi aloqalarda katta ahamiyatga ega. Bu mavzuda bir nechta o‘zbekcha maqollar mavjud bo‘lib, “*Va‘dasiga vafosi yo‘q, Ko‘rshapalakning ko‘zi yo‘q*”²³, “*Va‘da – tosh devordan qattiq*”²⁴, “*Va‘daga vafo sinovli kunda sinalar*”²⁵ shular jumlasidan sanaladi va yuqoridagi mazmuni aynan ifodalash uchun ko‘proq “*Yozga yetsang, qish kuningni unutma*”²⁶, “*Ko‘rgan kuningni unutma, Xom chorig‘ingni quritma*”²⁷, “*Ish bitdi – eshak loydan o‘tdi*”²⁸ kabilarni keltirish mumkin.

proverbial phrases a historical dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 1929. – 736 p.; Кароматова М.М., Кароматов Х.С. Proverbs-мақоллар-пословицы. – Тошкент: Меҳнат, 2000. 400 б.; Margulis A., Kholodnaya A. Russian – English dictionary of proverbs and sayings. – Oxford: Oxford University Press, 1974. – P. 494.; Simpson J., Speake J. The Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Third Edition, – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 364 p.; Simpson J., Speake J. The Oxford Dictionary of Proverbs. Fifth Edition. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 625 p.

²² Martin H. Manser. The facts on file dictionary of Proverbs: Second edition. – New York: Facts on File An imprint of Infobase publishing, 2002. – 56 p.

²³ Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs/Мақоллар/Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 39 b.

²⁴ O‘sha manba. – 286 b.

²⁵ O‘sha manba. – 366 b.

²⁶ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Том 1. – Тошкент: Фан, 1987. – 156 б.

²⁷ O‘sha manba. – 256 b.

²⁸ O‘sha manba. – 206 b.

Maqollar tarkibida inglizcha “*disease*”, “*illness*”, “*sickness*”, “*malady*”, “*ill*”, “*sick*” hamda o‘zbekcha “*dard*”, *bemor*”, “*kasal*”, “*xasta*”, “*betob*” leksemalari o‘rtasida o‘xshashlik va farqli jihatlar mavjudligini quyidagi jadvallar asosida ko‘rishimiz mumkin:

2.1.1-jadval

Tibbiy mazmunga ega bo‘lgan inglizcha va o‘zbekcha maqollar

No	Inglizcha maqollar	Tarjimasi	O‘zbekcha ekvivalenti
1	<i>The cure may be worse than the disease</i>	<i>Davo kasallikdan ham yomonroq bo‘lishi mumkin</i>	Kasalni mayiz emas, Achchiq dori tuzatar
2	<i>Diseases are the interests of pleasures</i>	<i>Kasalliklar rohatlanishga ishqibozlik natijasidir</i>	<i>Diling og‘risa, tilingni tiy, Iching og‘risa – nafsingni</i>
3	<i>He jests at scars that never felt a wound</i>	<i>Jarohat og‘rig‘ini hech qachon his qilmagan kishi, yaralardan kuladi</i>	Bemor bemorning qadriga yetar

2.1.2-jadval

Tibbiy mazmunga ega bo‘lgan inglizcha va tibbiy mazmunga ega bo‘lmagan o‘zbekcha maqollar

No	Inglizcha maqollar	Tarjimasi	O‘zbekcha ekvivalenti
1	<i>Desperate diseases must have desperate remedies</i>	<i>Tashvishli kasalliklarning tashvishli davolari bo‘lishi kerak</i>	<i>Kapasiga yarasha qirmovi, Eshagiga yarasha tushovi</i>
2	<i>To every malady a remedy save ignorance</i>	<i>Jaholatdan boshqa hamma dardga davo bor</i>	<i>Ilmsiz kishi o‘limga yaqin</i>
3	<i>The devil was sick, the devil a saint would be; the devil was well, the devil a saint was he!</i>	<i>Shayton kasal bo‘lganda, avliyo bo‘laman deydi; Shayton tuzalganda, hech qachon avliyo bo‘lmagan bo‘ladi</i>	<i>Ish bitdi – eshak loydan o‘tdi</i>

2.1.3-jadval

Tibbiy mazmunga ega bo‘lmagan inglizcha va tibbiy mazmunga ega bo‘lgan o‘zbekcha maqollar

No	Inglizcha maqollar	Tarjimasi	O‘zbekcha ekvivalenti
1	<i>All things are possible with God</i>	<i>Xudo har narsaga qodir</i>	Bemor tuzalgisi kelsa, tabib o‘z oyog‘i bilan kelar
2	<i>Forbidden fruit is the sweetest</i>	<i>Ta‘qiqlangan meva shirin bo‘ladi</i>	Bemor o‘ziga yoqmagan ovqatga o‘ch bo‘lar
3	<i>There’s life, there’s hope</i>	<i>Tiriklik bor ekan, umid ham bor</i>	Dard – boshqa, ajal – boshqa

2.1.4-jadval

Tibbiy mazmunga ega bo‘lmagan inglizcha va o‘zbekcha maqollar

No	Inglizcha maqollar	Tarjimasi	O‘zbekcha ekvivalenti
1	<i>Ill gotten goods never thrive</i>	<i>Yomon yo‘l bilan topilgan narsa hech qachon gullab-yashnamaydi</i>	<i>Qimordan kelgan, qimorga ketar</i>
2	<i>He that has an ill name is half hanged</i>	<i>Yomon nom orttirish yarim o‘limdir</i>	<i>Yomon atalib tirik yurguncha, Yaxshi atalib o‘lgan yaxshi</i>
3	<i>He that does ill hates the light</i>	<i>Yomonlik qiluvchi kishi yorug‘likdan qo‘rqar</i>	<i>O‘g‘ri oydingan qo‘rqar</i>

Yuqorida keltirilgan dastlabki jadvalda [2.1.1] inglizcha maqollar ham ularga ekvivalent bo‘lib kelayotgan o‘zbekcha paremlar ham tibbiy mazmun kasb etishi bilan o‘xshashlik tomonlari ko‘rsatib berilgan.

